

THE IMPLEMENTATION OF THE CONCEPT "HAPPINESS" IN UZBEK LANGUAGE

Ozoda Jumayeva,
A teacher, BSU

Abstract. This article is devoted to the realization of the concept of "happiness" in the Uzbek language using various lexical units. We know that one of the most important units of cognitive linguistics and linguoculture is the concept. Today, it is attracting the attention of many researchers.

Key words. Concept, happiness, linguoculturology, lexical units

Ushbu maqola o'zbek tilida «baxt» konseptining turli leksik birliklar yordamida voqecalanishiga bag'ishlangan.

Bizga ma'lumki, kognitiv lingvistika va lingvomadaniyatning muhim birliklaridan biri "konsept" hisoblanadi. Bugungi kunda u ko'plab tadqiqotchilarning diqqat-e'tiborini o'ziga qaratib kelmoqda. Konsept terminini tahlil qila turib, tadqiqotchilar ushbu xulosaga kelishdi:

Konsept nafaqat ierarxik tizimning lingvomadaniy sohalariga asoslanib qolmay, balki biror bir xalq madaniyatini o'zida aks ettiradi. "Kontsept" - insonning bilim va tajribasi namoyon bo'ladigan va u bilan o'z faoliyatini ko'rsatadigan abstrakt birlikdir[1].(7, p. 603)

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, o'zbek tilidagi "Baxt" konseptini kognitiv nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz. O'zbek tilining izohli lug'atida «Baxt» atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan[2]:

Baxt [f. taqdir, nasiba, ulush]

1. ijtimoiy. Kishining o'z faoliyati natijalaridan, hayotda qo'lga kiritgan yutuqlaridan to'la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, muayyan maqsadga yetgani, orzu- umidining ushalihi sifatida namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiytushuncha.

2. Hayot (turmush)dan to'la mamnunlik va bearmonlik holati; saodat qut. *Mehnat - baxt keltirar. Maqol. Ona-yer nafasiga, mehriga, in'omlariga to'yib yashashdan ortiq baxt bormi?* "Saodat".
3. Omad, tole; iqbol. *Uf, nima ish qilsam, ketga qarab ketadi, xolos, mening baxtim qursin. Hamza, Tuhmatchilar jazosi. –Ana shu qizlar safida menga ham joy bordir, - deb o'yladi Adolat. – Baxtimni bir sinab ko'ray-chi?* I.Rahim, Chin muhabbat. *Hamma gap peshonada, taqdir... Peshona sho'r bo'lgandan keyin, unda baxt guli unadimi!* H.G'ulom, Mash'al.

Baxtli

1. O'z hayotidan mamnun, baxti kulgan; baxtiyor. *Baxtli qiz. Bunday baxtli yoshlik bir marta keladir. Zavqini surib qoling, aylanay.* P.Qodirov, Yulduzli tunlar. *Ilohim, baxtli bo'!* *Onangga, otangga rahmat, senga ish o'rgatishibdi.* Oybek, Tanlangan asarlar.
2. Shirin, bearmon. –*Ha, mayli, - dedi xo'rsinib [Qirmizxon], - Siz bilan o'tkazgan onlarimni shu notavon umrimning eng baxtli damlari deb bilaman.* N.Aminov, Qahqaha. *U bu uyda eng shirin, baxtli kunlarini o'tkazdi.* S.Zunnunova, Ko'k chiroqlar.
3. Tolei baland, omadi bor, omadli. *Baxtli ovchiga cho'loq kiyik yo'liqar.* Maqol. *Aylanay, kuyov bola, baxtli yigit ekansiz, shunday odamlarga o'g'il bo'libsiz.* "Mushtum".

4. Baxtiyor [f. baxt yor bo'lgan, baxtli]

O'z hayoti, toleidan mamnun, baxti kulgan; baxtli, saodatmand. *Baxtiyor o'zbek xalqi. Baxtiyor oila. Baxmal qirg'oqlarni to'ldirib oqdi Baxtiyor elimning quvonchli sasi. G'ayratliy. Oyqiz issiq yuzini sevimli erining ko'ksiga qo'yib, qalbi quvonch bilan to'lib-toshardi va o'zini chindan ham baxtiyor his qilardi.* Sh.Rashidov, Bo'rondan kuchli. *Xursand edi behad ikki yor, Xursand edi ikki baxtiyor.* H.Olimjon.

1. Shirin, bearmon. *Baxtiyor hayot. U kunlar Nazirqul uchun eng baxtiyor kunlar edi.* S.Ahmad, Hukm. *Zokir uning Narimon bilan o'tkazgan baxtiyor damlarini unutmamaganini sezganda, juda rashki kelar va jerkib gapirardi.* P.Qodirov, Uch ildiz.
2. Mamnun, shodon. *Qayg'usi yo'q biror kunni ko'rmadim, Biror soat men baxtiyor bo'lmadim.* H.Olimjon. *Matqovul baxtiyor edi Bugun qozon osilardi.* M.Ismoilov, Farg'ona tong otguncha. *A'zamjon baxtiyor, o'z xotinining husnidan mast edi.* S.Ahmad, Ufq.

Baxtiyorlik

O'z hayotidan mamnunlik, xushbaxtlik, saodatmandlik; saodatli, shirin hayot. *Oilaviy baxtiyorlik. Ikkovining gul-gul yashnagan yuzlaridan baxtiyorlik nuri yog'ilib turar, ko'zlarida ehtiros chaqmoq chaqar, ulardan go'yo bahor gullarining nafis hidi anqirdi...* S.Anorboyev, Oqsoy. *Chehrasida oshkor baxtiyorlik bor edi.*

«Baxt» konsepti o'zbek milliy ensiklopediyasida quyidagicha voqealangan:

Baxt – ma'naviy –axloqiy tushuncha. Kishi o'z faoliyati natijalaridan, hayotda qo'lga kiritgan yutuqlaridan to'la qoniqish, yashash tarzidan mamnunlik, muayyan maqsadga yetganlik, orzu-umidning ushalishi, bearmonlik holati sifatida namoyon bo'ladi.

Baxt qadimgi davrda evdonizm falsafasining asosiy tushunchasi bo'lgan. Uning vakillari baxtga hayotning asosiy maqsadi, kishilar intiladigan masrurlikka erishilgan holatning, shod-hurram bo'lishning eng oliy ko'rinishi sifatida qaraganlar. Aristotel, Epikur, Diogenlar ham shunday tushunganlar. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Sa'diy, Navoiy kabi olim va mutafakkirlar ijodida bu mavzu muhim o'rin egallagan. Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham bu mavzuga katta e'tibor berilmoqda.

Baxt nisbiy tushuncha, mutlaq baxt yo'q. Baxtni qanday ma'noda tushunish shaxsning ijtimoiy o'rniga, bilimi, yoshi, dunyoqarashiga bog'liq. Baxt haqidagi kishilarning tasavvurlari ijtimoiy tuzum va undagi ijtimoiy munosabatlar majmuasi bilan uzviy bog'liq. Chinakam baxtli bo'lish uchun har bir shaxs erkin, teng, o'z iste'dod va qat'iyatini har tomonlama namoyon qilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'lmog'i zarur. Shuningdek, baxtga erishish uchun har bir shaxs jamiyatda, oilada o'z o'rnini topgan, burch va ma'suliyatni anglagan bo'lishi lozim. Odam o'z ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, hatti-harakati, xulqi, aql-zakovati bilan baxtli bo'lish uchun intilishi va kurashishi kerak. Inson o'z taqdirini xalq, Vatan taqdiri bilan uyg'unlashtirgandagina to'la baxtli bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Z.M.Magrufova O'zbek tilining izohli lug'ati.M.-1981. 85b
2. Vorkachev S.G., Vorkacheva E.A. The concept of happiness in the English language: a significant component // Mass culture at the turn of the XX-XI centuries: the man and his discourse. M.: Azbukovnik, 2003.S. 263-275.
3. <http://www.psychosocial.com/article/PR260927/21483>
4. Rakhmonova D.M. Introducing innovations in The Preschool Education System With Talented Children. Middle European scientific bulletin,ISSN 2694-9970.
5. Rakhmonova D.M. Ways to determine talented children in preschool

education Academics: ISSN: 2249-7137 vol. 10, issue 11, november 2020
impact factor: sjif 2020 = 7.13

6. Rajabboyevna A. N. Individualization in education and methods of improving teaching the english language //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – T. 24. – №. 1. – C. 91-96.
7. Alimova N., Radjabova M. THE ROLE AND IMPORTANCE OF INDIVIDUAL EDUCATION IN THE SYSTEM OF ORGANIZATION //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – C. 401-404.
8. Alimova N. R. IMPROVING TECHNOLOGY OF INDIVIDUALIZATION ON EDUCATION FOR STUDENTS OF TECHNICAL SPECIALTIES IN TEACHING ENGLISH //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – C. 352-355
9. Rajabboyevna A. N. Organization of English Lessons Based on Advanced Pedagogical Techniques //International Journal on Integrated Education. – T. 3. – №. 3. – C. 41-45.
10. Alimova N. POSSIBILITIES FOR INDIVIDUALIZING TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN A NON-LANGUAGE UNIVERSITY //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – T. 7. – №. 12.
11. Nozima A. Content And Methods Of Individualization Of Teaching Activities //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2021. – T. 25. – №. 1. – C. 50-53.